



MODERN USLUBIDAGI HIKOYALARDA MILLIYLIK

Qodirova Sevinchoy Azim qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada modernizmning adabiyotdagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Modern hikoyalardagi milliy tilning ahamiyati, milliy urf-odatlar, tarixiy hodisalar va madaniy elementlarning qanday shakllarda aks etishi tahlil qilindi. Adiblar o'z yurtining tilini va madaniyatini qanday ifodalashi, shaxsiylik va individualizmning o'zaro munosabatlari haqida fikr yuritildi.*

Kalit so'zlar: *Modern uslubi, modernizm, milliylik, hikoya, urf-odat, qadriyat, tarix, qahramon, davr, xarakter, tasvir.*

Абстрактный. *В данной статье проанализированы роль и характеристики модернизма в литературе. Проанализировано значение национального языка в современной истории, национальных традициях, исторических событиях и культурных элементах. Обсуждалось, как писатели выражают язык и культуру своей страны, а также взаимосвязь личности и индивидуализма.*

Ключевые слова: *Стиль модерн, модернизм, национальность, сюжет, традиция, ценность, история, герой, период, персонаж, образ.*

Abstract. *This article analyzed the role and characteristics of modernism in literature. The importance of the national language in modern stories, national traditions, historical events and cultural elements were analyzed. How writers express the language and culture of their country, and the relationship between personality and individualism were discussed.*



Key words: *Modern style, modernism, nationality, story, tradition, value, history, hero, period, character, image.*

Modernizm Gʻarbiy Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sahnaga chiqdi. Oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdiki, modernizm – bu zamonaviy sanʼat va adabiyotdagi yangi uslubiy taʼlimot hisoblanadi. Uning adabiyot va sanʼatda namoyon boʻlishi aslo tasodifiy emas. Tez orada adabiyotda modernistik asarlar yuzaga kela boshladi. Modernizm adabiyotida yaratilgan hikoyalarni oʻrganar ekanmiz, ijodkorlar har bir insonni alohida bir olam sifatida tasvirlashga uringaniga amin boʻlamiz. Hayot haqiqatini anglab, oʻz ruhiyatini taftish qiladigan qahramonlar yaratish orqali badiiy olamni haqiqatga aylantirmoqdalar. Bunday gʻoyalarni Nazar Eshonqul, Xurshid Doʻstmuhammad, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Ulugʻbek Hamdam yaratgan hikoyalar orqali kuzatish mumkin.

Modern hikoya yoki qissaga yana bir misol qilib Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasini olsak boʻladi. “Qora kitob” shayton kutkusini oʻz hayotiga dasturulamal etib olgan va uni oʻz farzandlari tarbiyasiga ham singdirgan va alaloqibat oʻz xatosini ilgʻab etgan kishining boshidan kechirganlari haqidagi asardir. Qissa mohiyat yetmish yoshga chiqib oʻzligini oʻz qilmishi va hayotidagi mavqeni anglab olgan kishilarni eslatadi. Qahramon turmushning past-balandini, achchiq-chuchugini, yaxshi-yomon koʻrgan inson sifatida kelgan xulosalari oʻta tushkun ruhda tasvirlanadi. Uningcha "odamzoddan umid qiladigan narsaning hammasi oʻlgan. Hammasi halok boʻlgan". Hamma narsa boy berilgan barbod boʻlgan. "Endi buni hech narsa qutqara olmaydi. Na goʻzallik na ishonch, na ezgulik".

Belinskiyning fikriga koʻra, “Milliylik yozuvchining xizmati emas, balki ijodning shoir tomonidan uncha zoʻr berishni talab qilmaydigan zaruriy shartdir.... Milliylik shoirni ulugʻ qilmaydi, balki buyuk talant shoirni milliy qiladi... agarda



asar badiiy bo'lsa, u o'z-o'zidan milliy bo'ladi". N.V.Gogol ham milliylik tog'risida gapirib: "Milliylik sarafani (ayollar kiyimi) – portret tasvirlashda emas", deydi. Binobarin, milliylik badiiy asarga, undagi voqealar, obrazlar tizimi, ularning xarakteri hamda portretiga kiygizilgan libosdir. Qardosh xalqlar adabiyotida milliylik turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xususan, "Muxtor Avezov asarlaridagi ijobiy qahramonlar siymosida qozoq xalqining milliy belgilarini ko'rsak, Berdi Kerboboyev asarlaridagi qahramonlar orqali turkman milliy xarakterini, Chingiz Aytmatov qissalarida qirg'izlarga xos xislatlarni va Oybek romanlarida o'zbek milliy xarakterini ko'ramiz. Amnmo M.Avezov ham, B.Kerboboyev ham, Ch.Aytmatov ham, Oybek ham o'zlari mansub bo'lgan xalqning milliy xarakterini mahorat bilan badiiy ifodalash orqali umuminsoniy g'oyalarni ko'tarib chiqqanlar. Milliy xususiyat xalqning urf-odatlarini, tarixiy an'analari, o'ziga xos tafakkur tarzlari, til xususiyatlari, ayni xalq yashayotgan joyning relyef-toponimik belgilari kabilarda ham yaqqol ko'rinadi" [2.88].

Badiiy adabiyotda obrazlarning tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari, nigohlari orqali o'zbekona urf-odat hamda an'analarni, faqat o'zbeklargagina xos bo'lgan mentalitet, yurish-turish, xatti-harakat, kiyim-kechak, yuz, qo'l, oyoq va butun tana harakatlarida milliylikni o'zida mujassam etadi. Masalan Normurod Norqobilovning "Kurash" hikoyasi o'z qadriyatlari va zamonaviy hayotning murakkabliklarida harakat qilishda o'z merosini hurmat qilish muhimligi haqida fikr yuritishga chaqiradi. Bunda "Kurash" an'ana va o'zgarish, kuch va zaiflik o'rtasidagi abadiy kurash, shaxsiy va oilaviy sha'ni uchun tinimsiz izlanishning dalilidir. Hamida momoning ichki qarama-qarshiligi va uning oila merosidan og'ish deb bilgan narsani tuzatishga bo'lgan qat'iyati ko'rsatilgan. U Shomurodga jarohati uchun emas, balki o'zi uchun qadrlil bo'lgan or-nomus va halol o'yin tamoyillarini singdirish istagida qarshi turadi. Bu o'zaro ta'sir "Kurash"ning mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan — bu nafaqat jismoniy kuch, balki ma'naviy butunlik va oilaviy burch kurashidir. Uning xarakteri o'tmish va bugun



o'rtasidagi ko'prik bo'lib, otasi To'rapolvondan qolgan boy merosni o'zida mujassam etgan. Yozuvchi undan zamonaviy chaqiriq va o'zgarishlar sharoitida muqaddas qadriyatlarni saqlab qolish muhimligini ta'kidlash uchun foydalanadi. Momoning o'g'li Shomurodning kurashdagi shafqatsiz usulini ma'qullamagani, uning kurashning haqiqiy ruhiga sodiqligini, u shunchaki g'alabadan ko'ra adolat va sharafni qadrlashini ko'rsatadi. Uning ichki mojarosi yaqqol sezilib turadi, chunki u o'zining jismoniy qobiliyatlaridan g'ururlanishi bilan bir qatorda o'g'lining usullaridan ko'ngli qoladi. Bu keskinlik uning Shomurod bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnash kelishi bilan yakunlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, modernizm da inson ruhiyatini, hayotning murakkab haqiqatlarini anglash va tasvirlashga urg'u berildi. Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam kabi adiblar o'z asarlarida individualni alohida olam sifatida tasvirlab, real hayotdan o'zgarishlarni yoritishga harakat qilishdi. Modernizm da milliylik ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqning urf-odatlarini, tarixiy an'analari, til va madaniyati asarlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy asarlarda milliy xarakterni ifodalash, shuningdek, umumiy insoniy qadriyatlar bilan bog'liqdir. "Kurash" hikoyasida o'z milliy qadriyatlarini hurmat qilish va zamonaviy o'zgarishlar sharoitida bu qadriyatlarni saqlab qolish masalasi ko'tariladi. Modernizm nafaqat tashqi voqealarni, balki ichki kurashlarni ham yoritishga qaratilgan bo'lib, adiblar insonning ruhiy dunyosini chuqur tahlil qilishga intilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O'zbekiston", 2001. – 560 b.



2. Muhammadjon X. “XX asr modern adabiyoti manzaralari”. Xurshid Davron kutubxonasi
3. Hoshimov O‘. O‘zbeklar. Hikoyalar, o‘ylar, hajviyalar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 218 b.
4. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. “Ma’naviyat”. T-2000.
5. Do‘stmuhammedov X. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi. –Toshkent, 1995.